# XORAZM VILOYATININGTASHQI SAVDO AYLANMASI
***(2021-yilyanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot)***

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021-yilning yanvar-may oylari yakuni bo'yichaviloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 236,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 74,9 mln. AQSh dollariga yoki 46,3 % ga ko'paygan.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**
***(yanvar-may, mln. AQSh dollari)***

| | 2020- yil | 2021- yil | O'sish sur'ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| | **161,6** | **236,5** | **146,3 %** | **x** |
| **Eksport** | **68,6** | **84,2** | **122,8 %** | **100,0** |
| *tovarlar* | *65,0* | *79,1* | *121,7* | *93,9* |
| *xizmatlar* | *3,6* | *5,1* | *141,7* | *6,1* |
| | | | | |
| **Import** | **93,0** | **152,3** | **163,7 %** | **100,0** |
| *tovarlar* | *93,0* | *152,3* | *163,7* | *100,0* |
| **Saldo** | **-24,4** | **-68,1** | **x** | **x** |

Eksport hajmi 84,2 mln. AQSh dollari (22,8 % ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 152,3 mln. AQSh dollarini (63,7 % ga ko'paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 68,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasitovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



## XORAZM VILOYATIBILAN TASHQISAVDOAYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGAEGA BO'LGAN DAVLATLAR

***(2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi % da)***

**Xitoy Xalq Respublikasi**
TSA – 53,6
Eksport – 10,7
Import – 42,9

**Braziliya**
TSA – 50,3
Eksport – 0,0
Import – 50,3

**Rossiya Federatsiyasi**
TSA – 36,4
Eksport – 22,3
Import – 14,1

**Turkiya**
TSA – 24,0
Eksport – 11,4
Import – 12,6

**Qirg'iz Respublikasi**
TSA – 16,4
Eksport – 16,4
Import – 0,0

**Qozog'iston**
TSA – 10,3
Eksport – 6,9
Import – 3,4

**Koreya Respublikasi**
TSA – 10,0
Eksport – 0,3
Import – 9,7

**Turkmaniston**
TSA – 5,2
Eksport – 3,2
Import – 2,0

**Ukraina**
TSA – 3,9
Eksport – 1,6
Import – 2,3

**Germaniya**
TSA – 3,2
Eksport – 0,2
Import – 3,0

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahonning 78 ta mamlakatibilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (22,7 %), Braziliya (21,3%), Rossiya Federatsiyasi(15,4 %),Turkiya (10,1 %), Qirg'iz Respublikasi (7,0 %), Qozog'iston (4,4 %) va Koreya Respublikasi (4,2 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishlarga import tovarlarning oʻrnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin.



**XORAZM VILOYATININGYIRIK HAMKORDAVLATLAR BILAN TASHQ
SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
***(yanvar-may mln. AQSh dollari)***

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **40,7** | **24,9** | **53,6** |
| Eksport | 2,6 | 3,4 | 10,7 |
| Import | 38,1 | 21,5 | 42,9 |
| Saldo | -35,5 | -18,1 | -32,2 |
| **Braziliya** | **0,0** | **6,4** | **50,3** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | - |
| Import | - | 6,4 | 50,3 |
| Saldo | - | -6,4 | -50,3 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **31,4** | **50,7** | **36,5** |
| Eksport | 12,9 | 14,1 | 22,4 |
| Import | 18,5 | 36,6 | 14,1 |
| Saldo | - 5,6 | - 22,6 | 8,3 |
| **Turkiya** | **19,4** | **16,6** | **24,0** |
| Eksport | 4,7 | 6,9 | 11,4 |

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| Import | 14,7 | 9,7 | 12,6 |
| Saldo | -10,0 | -2,8 | -1,2 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **28,7** | **24,8** | **16,4** |
| Eksport | 28,1 | 24,7 | 16,4 |
| Import | 0,5 | 0,1 | 0,0 |
| Saldo | 27,6 | 24,6 | 16,4 |
| **Qozog‘iston** | **14,5** | **10,0** | **10,3** |
| Eksport | 10,2 | 9,0 | 6,9 |
| Import | 4,3 | 1,1 | 3,4 |
| Saldo | 5,9 | 7,9 | 3,5 |
| **Koreya Respublikasi** | **8,3** | **3,2** | **10,0** |
| Eksport | 0,1 | 0,2 | 0,4 |
| Import | 8,2 | 3,0 | 9,6 |
| Saldo | -8,1 | -2,8 | -9,2 |
| **Turkmaniston** | **5,7** | **4,3** | **5,2** |
| Eksport | 2,8 | 2,1 | 3,2 |
| Import | 2,9 | 2,2 | 2,0 |
| Saldo | -0,1 | -0,1 | 1,2 |
| **Ukraina** | **6,9** | **2,8** | **3,9** |
| Eksport | 5,7 | 0,9 | 1,6 |
| Import | 1,2 | 1,9 | 2,3 |
| Saldo | 4,5 | -1,0 | -0,7 |
| **Germaniya** | **4,5** | **1,8** | **3,2** |
| Eksport | 0,1 | 0,2 | 0,2 |
| Import | 4,4 | 1,6 | 3,0 |
| Saldo | -4,3 | -1,4 | -2,8 |



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar-may oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 2,4 martaga oshgan va jami TSA dagi ulushi 67,6 % ni tashkil etdi.

## XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
***(2021- yil yanvar-may)***

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlari soni 72 tani tashkil etib, ular tomonidan 84,2 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 22,8 % ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,9 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (52,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (27,6 %),turli xil tayyor buyumlar (8,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)***




- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 27,6 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 4,5 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 0,0 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,1 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 0,3 %
- Sanoat tovarlari – 52,9 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 0,4 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 8,1 %
- Xizmatlar – 6,1 %

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-may)*

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln. AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln. AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami eksport** | **84,2** | **122,8** | **100,0** | **53,8** | **104,1** | **100,0** | **30,4** | **180,2** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 23,2 | 144,1 | 27,6 | 19,4 | 138,4 | 36,1 | 3,8 | 182,5 | 12,6 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 3,8 | 43,0 | 4,5 | 1,0 | 22,4 | 1,8 | 2,8 | 63,5 | 9,2 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 0,0 | 194,8 m. | 0,0 | 0,0 | 193,3 m. | 0,1 | 0,0 | - | 0,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,1 | 16,5 | 0,1 | 0,1 | 18,5 | 0,1 | 0,0 | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,3 | 125,0 | 0,3 | 0,3 | 125,0 | 0,5 | 0,0 | - | - |
| Sanoat tovarlari | 44,5 | 182,2 | 52,9 | 22,6 | 149,9 | 42,0 | 21,9 | 2,3m. | 72,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,4 | 2,9m. | 0,4 | 0,4 | 2,8 m. | 0,7 | 0,0 | - | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 6,8 | 45,8 | 8,1 | 6,7 | 45,5 | 12,5 | 0,1 | 127,5 | 0,3 |
| Xizmatlar | 5,1 | 142,7 | 6,1 | 3,3 | 124,8 | 6,2 | 1,8 | 194,9 | 5,9 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoattovarlari,oziq-ovqatmahsulotlari va tirik hayvonlar va turli xil tayyor buyumlarga to‘g‘ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-mayiga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar, hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar eksportida pasayish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar-may, % da)***

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 62,8 | 23,5 | 27,6 |
| Ichimliklar va tamaki | - | 0,0 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 9,3 | 12,7 | 4,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 1,0 | 0,0 | 0,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | 0,6 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,3 | 0,3 | 0,3 |
| Sanoat tovarlari | 19,2 | 35,8 | 52,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,0 | 0,2 | 0,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,4 | 21,7 | 8,1 |
| Xizmatlar | 7,0 | 5,2 | 6,1 |



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIHAJMLARINING DINAMIKASI**
***(yanvar-may,mln. AQSh dollari, ulushi % da)***




2021- yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 26,5 %),Qirg'iz Respublikasi (19,5 %),Turkiya (13,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi(12,7%), Qozog'iston (8,2 %), Turkmaniston (3,8 %) va Tojikiston (2,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 87,1 foizni tashkil etmoqda.



**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2021-yil yanvar-may,% da)***



2021- yilning yanvar-may oylarida o‘tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qirg‘iz Respublikasi va Turkiya o‘rin egallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI**
***(yanvar-may)***

| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 14,1 | 22,3 | 109,3 | 158,8 | 2 | 1 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 24,7 | 16,4 | 87,8 | 66,6 | 1 | 2 |
| Turkiya | 6,9 | 11,4 | 149,0 | 163,6 | 4 | 3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 3,4 | 10,7 | 130,7 | 3,1 m. | 5 | 4 |
| Qozog‘iston | 9,0 | 6,9 | 88,0 | 76,7 | 3 | 5 |
| Turkmaniston | 2,1 | 3,2 | 74,1 | 154,8 | 6 | 6 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.

## XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)*

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qirg'iziston | | Turkiya | | XXR | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| **Jamieksport** | **14,1** | **22,3** | **24,7** | **16,4** | **7,1** | **11,4** | **3,4** | **10,7** |
| Shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 1,5 | 3,5 | 2,9 | 8,4 | 0,4 | 0,3 | 0,1 | 0,4 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | 0,0 | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 0,1 | 0,1 | 4,1 | 0,4 | 1,6 | 1,1 | 0,5 | 0,6 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar | - | 0,0 | 0,0 | - | - | 0,0 | - | - |
| Hayvon va o'simlikla rmoyi (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | - | - | 0,1 | 0,0 | - | - | - | - |
| Sanoat tovarlari | 11,2 | 16,6 | 2,8 | 2,7 | 5,0 | 9,9 | 2,8 | 9,7 |
| Mashinalarva transport asbob-uskunalari | 0,0 | - | 0,1 | 0,4 | - | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,0 | 0,3 | 14,7 | 4,5 | 0,1 | 0,1 | - | - |
| Xizmatlar | 1,3 | 1,8 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

Xizmatlar eksporti hajmi 5,1 mln.AQSh dollarini yoki jam ieksport hajmining 6,1 % ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 42,7 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (70,5%), safarlar (turizm) (21,3 %) v aboshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (8,2%) hissasiga to'g'ri kelgan.



**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-may, ulushi % da)***






**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 22,1 mln. dollar qiymatli yoki 40,0 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 16,0 mln. AQSh dollariga teng 34,5 ming tonna sabzavot, shuningdek, 6,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 5,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 26,3 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**
***(2021- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)***




Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan toʻplangan tajribaga ham bogʻliqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xoʻjaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirgʻiz Respublikasi (39,2 %), Qozogʻiston (19,0%), Rossiya Federatsiyasi (15,7 %) va Turkmaniston (7,5 %) davlatlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

# XORAZM VILOYATINING IMPORTI
***(2021- yil yanvar-may)***

2021- yilning yanvar-may oylarida import hajmi 152,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib,2020- yilning mos davriga nisbatan 63,7 % ga ko‘paygan.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (39,6 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (27,7 %), turli xil tayyor buyumlar (14,9 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari, 6,9 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)***




Tovar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-mayida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 59,3 mln. AQSh dollariga ko‘paygan va 152,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-may)*

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, %da |
| **Jami import** | **152,3** | **163,7** | **100,0** | **22,7** | **53,1** | **100,0** | **129,6** | **2,6 m.** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 60,0 | 190,4 | 39,6 | 5,7 | 24,7 | 24,9 | 54,3 | 6,3m. | 42,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 4,0 m. | 0,0 | 0,0 | 4,0 m. | 0,1 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 10,6 | 91,0 | 6,9 | 8,4 | 102,7 | 37,2 | 2,2 | 62,9 | 1,7 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar | 1,2 | 143,9 | 0,8 | 0,7 | 87,6 | 2,9 | 0,5 | 11,4m. | 0,4 |
| Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar | 0,7 | 20,2 | 0,4 | 0,6 | 17,3 | 2,5 | 0,1 | 2,5 m. | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 7,5 | 152,9 | 4,9 | 1,5 | 80,4 | 6,7 | 6,0 | 197,8 | 4,6 |
| Sanoat tovarlari | 7,4 | 145,4 | 4,8 | 2,2 | 88,1 | 9,9 | 5,2 | 2,0m. | 3,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 42,2 | 150,4 | 27,7 | 2,4 | 90,7 | 10,5 | 39,8 | 156,5 | 30,7 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 22,7 | 3,0 m. | 14,9 | 1,2 | 2,2 m. | 5,3 | 21,5 | 3,0 m. | 16,6 |




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2021- yil yanvar-may, ulushi, % da)***

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 3,7 | 33,8 | 39,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 8,4 | 12,5 | 6,9 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar | 0,2 | 0,9 | 0,8 |
| Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1,1 | 3,6 | 0,4 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 3,4 | 5,3 | 4,9 |
| Sanoat tovarlari | 4,5 | 5,4 | 4,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 52,4 | 30,2 | 27,7 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 26,3 | 8,3 | 14,9 |

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
*(yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi % da)*




2020- yil bilan taqqoslaganda, import bo‘yicha eng yuqori yettitalikda o‘zgarish kuzatilmadi.

## XORAZM VILOYATININGASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI
*(yanvar-may)*

| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Braziliya | 6,4 | 50,3 | - | 7,9 m. | 4 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 21,5 | 42,9 | 56,5 | 199,5 | 2 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 36,6 | 14,1 | 197,4 | 38,6 | 1 | 3 |
| Turkiya | 9,7 | 12,6 | 65,8 | 130,5 | 3 | 4 |
| Koreya Respublikasi | 3,0 | 9,7 | 36,8 | 3,2 m. | 5 | 5 |
| Qozog‘iston | 1,1 | 3,4 | 25,0 | 3,2 m. | 7 | 6 |
| Germaniya | 1,6 | 3,0 | 36,6 | 186,1 | 6 | 7 |

**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2021- yil yanvar-may)***




2021-yilning yanvar-may oylarida viloyatga 46ta xorijiy davlatlardan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Braziliya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi,Turkiya, Koreya Respublikasi, Qozog‘iston va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 136,0 mln.AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 89,3 %ni tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: (62) 224-65-09**